

## INKLYUZIV TA'LIM MARKAZI-MEHR MANZILI



***Yuldasheva Feruza Elamasovna***

*Toshkent viloyati inklyuziv ta'lism markazi  
kasb koordinatori*

*“Xalq ta'limi a'lochisi”,  
“Sog'lom turmush” medali sohibasi*

***Sattarova Muxlisa Kuchqar qizi***

*Toshkent viloyati inklyuziv ta'lism markazi  
ta'lism koordinatori*

**Kalit so'zlar:** imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv ta'lism, nogiron bolalar, ta'lism muhiti, kasbga yo'naltirish

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizda nogironligi bo'lgan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan inklyuziv ta'lism markazlari faoliyati, o'qituvchilar va ota-onalarning inklyuziv ta'lism hamda nogironligi bo'lgan o'quvchilarning umumiyligi ta'lism muhitida xabardorligini oshirishning eng samarali usullari keltirilgan; Inklyuziv ta'lism markazlari faoliyati samarali tashkil etilganda nogironligi bo'lgan yoshlarni kasbga yo'naltirish mashg'ulotlari natijasida hayotda o'z o'rinnarini topishlari, halol mehnati bilan daromadga chiqqanligi yoritib berilgan.

Farzand dunyoga kelar ekan, ota-onalar uni tarbiyalab, komil insonlar safiga qo'shishni niyat qiladi. Har bir bola - bir olam, har bir bola - o'zgacha olam!

Biroq, bu farzand atrofda bo'layotgan voqe-a-hodisalarga befarq, fikrlash qobiliyati o'z tengdoshlariga emas, 2-3 yosh kichik bolaning fikrlariga hamohang bo'lsa, aqliy yoki jismoniy jihatdan tengdoshlaridan orqada qolsa, o'qish va yozishga qiyalsasa, og'zaki nutqida kamchiliklar kuzatilsa, unga qanday yordam bera olasiz? Bunday bolalarning ota-onalari tushkunlikka tushishadi, farzandining hayotda o'z o'rnini topib ketishlaridan xavotirlanishadi.

Yoshlar ishlari agentligining tashabbusi va amaliy ko'magi bilan nogironligi bo'lgan yoshlarning jamiyatda ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, ularning ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish maqsadida inklyuziv ta'lism markazlari tashkil etilgan. Shunday markazlardan biri Toshkent viloyati inklyuziv ta'lism markazi bo'lib, ushbu markaz Ohangaron tumanidagi Yoshlar markazida tashkil etilgan, unda hozirgi kunda 100 nafardan ziyod nogironligi bo'lgan, salomatligi tufayli uy sharoitida ta'lism oluvchi hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilaning 5 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan tuman hamda shahar yoshlari qamrab olingan.

Inklyuziv ta'lif markazi uchun xona ajratilgan bo'lib, ishtirokchilar bilan korreksion mashg'ulotlar olib borish, kasb-hunar o'r ganishlari uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Hozirgi kunda markazga eshitishida nuqsoni bor, imkoniyati cheklangan, tayanch-harakat a'zolari shikastlangan, Daun sindromli, ko'r shida nuqsoni bo'lgan, uy sharoitida ta'lif oluvchi va ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari tashrif buyurib, psixologik, logopedik ko'mak olish bilan birga hayoti davomida zarur bo'ladigan kasb-hunarlarni ham o'r ganmoqdalar.



Markazimizda ta'lif yo'nali shida logopediya va psixologik yordam to'garaklari muntazam faoliyat yuritib, nafaqat ishtirokchilarimiz, balki ularning ota-onalariga ham maslahat va tavsiyalar berib kelmoqda.

Markaz ishtirokchilarini kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida 3 turdag'i to'garak tashkil etilgan bo'lib, bular "Biserchilik", "Mohir qo'llar", "Dekorativ bezak" to'garaklari.

Ishtirokchilarni to'garaklarga jalb qilishda ularning rivojlanishidagi nuqsoni, yoshi, imkoniyatlari, va albatta, qiziqishlarini inobatga olamiz. Mavzularni tanlashda ham ishtirokchilarning fikrlariga tayanamiz.

**"Biserchilik"** yo'nali shida ishtirokchilar turli rangli munchoqlardan bilaguzuk, soch uchun bezaklar (obodok), biserlardan esa daraxt, gullar yasashni o'r ganishoqda. Bu yo'nali shidkorreksion maqsadlarni ham o'ziga jamlaydi, ishtirokchilarning didi rivojlanadi, ranglar mutanosibligini tanlashni o'r ganishadi, ularni siga o'tkazish orqali qo'l mayda muskullarining harakatchanligi ortadi, bu esa o'z navbatida ishtirokchilarimizning nutqi ravon bo'lishiga yordam beradi. Markazda ishtirokchilar birgalikda yasagan buyumlarini ota-onalar va mehmonlar havas bilan sotib

olishmoqda, tushgan daromadga ishtirokchilarning yangi buyumlar yasashni o‘rganishi, o‘rganganlarini mustahkamlashi uchun xomashyo sotib olishga erishdik. Bu yo‘nalishda hozirda 2 nafar ishtirokchi mahsulotlarni mustaqil yasab, daromad ola boshladi.

**“Mohir qo‘llar”** yo‘nalishida esa uy sharoitida ta’lim oluvchi, imkoniyati cheklangan ishtirokchilar qo‘l mehnati bilan arzon mahsulotlardan turli buyumlar yasashmoqda. Gofri qog‘ozlaridan gul yasash, polietilen xalta va bir martalik qog‘oz sochiqchalardan gul yasash, ro‘zg‘orda ishlataladigan polietilen iplardan turli bezaklar yasash, pufak va sintepondan olma, limon, anor mevalarini yasashni o‘rganish bilan birga ishtirokchilarning diqqati, xotirasi, tafakkuri, mayda qo‘l muskullari harakatchanligi ham rivojlanib bormoqda. Bu yo‘nalishda ham ishtirokchilarimiz orasida o‘rgangan hunarlarni mustaqil uddalay oladiganlar talaygina.

**“Dekorativ bezak”** yo‘nalishida hosirgi kunda aholidan ko‘p talab bo‘layotgan izolon matosidan uy va ofislar uchun bezak bo‘la oladigan gullar, foamiran matosidan esa xuddi shu maqsadda ishlataladigan mayda gullar yasashni yo‘lga qo‘ydi. Bunday gullarni yasashda dazmol, qurilishda ishlataladigan fen, elektr yelimdan foydalanishimiz bois, ishtirokchilar har bir mashg‘ulotda xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtirib boriladi, ish ketma-ketligi esa kompyuter orqali namoyish etib boriladi. Markaz ishtirokchilari izolon matosidan liliya, boychechak, kala, atirgul, orxideya gullarini yasashni o‘rganishdi. Har bir gulni yasashni o‘rganishni boshlaganda bolalarimiz biroz qo‘llari kelishmaydi, xatoliklarga yo‘l qo‘yishadi, bu tabiiy, albatta! Lekin har bir yaratgan mahsulotimiz men uchun juda-juda qadrli, sababi, ularda bolajonlarimning jajji qo‘lchalarining izi, beg‘ubor va murg‘ak yurakchalarining tafti bor! Ishtirokchilarimiz ota-onalarining farzandlari o‘zlashtirgan hunarlari, o‘z qo‘llari bilan yaratayotgan san’at asarlarini ko‘rgandagi hissiyotlarini so‘z bilan ta’riflash qiyin! Endi ota-onalarimiz bu farzandlarining kelajagiga ishonishadi, yurtimizda nogironligi bo‘lgan bolalarga shunday imkoniyatlar yaratilgani uchun, doimo davlat e’tiborida ekanligi uchun shukrona aytishadi.

Markazda shu vaqtga qadar kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlari bilan birgalikda ishtirokchilarning intelektual rivojlanishi, jamiyatga moslashishlari, o‘z mahoratlarini namoyish etishlari maqsadida turli ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etildi.

Inklyuziv ta’lim markazi ishtirokchilari o‘rtasida **“Mehr-hayot ustuni”** shiori ostida rasm chizish ko‘rigi va shashka bo‘yicha musobaqa bo‘lib o‘tdi. Unda ishtirokchilar yuqoridagi sohalar bo‘yicha kuch sinashdilar, hakamlar odilona baholab borishi natijasida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan yoshlar Yoshlar markazi rahbari tomonidan faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan taqdirlandilar.

Navro‘z bayrami munosabati bilan tashkil etilgan **“Assalom, Navro‘z!”** nomli bayram tadbiriga bir guruh ishtirokchilarimiz ham taklif etildilar. Xalqimizga xos urf-

odatlar namoyishi, go'zal kuy-qo'shiqlar hamrohligida ishtirokchilarimiz bayram dasturxonidan bahramand bo'lishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning biri bo'lgan kitobxonlik doirasida ishtirokchilarimizning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, bilimlarini mustahkamlash, yangi kitoblar bilan tanishtirish maqsadida "**Men o'qigan kitob**" mavzusida kitobxonlik kechasi bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilarimiz kutubxonadan olib o'qigan kitoblari haqida, uning mazmuni, qahramonlari haqida so'zlab berishdi, o'zlari yod olgan she'rlarni yoddan aytishdi, o'zaro topishmoqlar aytish tez aytishlar tanlovlariiga ulanib ketdi.

**"Har bir bola e'zozda!" nomli mahorat maktabi** tashkil etdik. Unda ota-onalarga o'z farzandining alohida xususiyatlari, har bir boladagi o'z iqtidori borligi, ularni kashf etishda esa hamkorlikda ishlashimiz sarurligini namoyish etdik. Bolalar bilan olib boriladigan rivojlantiruvchi o'yinlar, korreksion mashqlarni ko'rsatib berdik. Ota-onalar uchun "Farzandimni qanchalik bilaman?" mavzusida test o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, ota-onalarga zarur tavsiyalar berildi.

Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan ichki turizmni rivojlantirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash, yshlariizni yurtimizning diqqatga sazovor, tarixiy maskanlari bilan tanishtirish maqsadida tashkil etilgan "**Inklyuziv O'zbekiston**" loyihasi doirasida **50 nafar yoshlar uchun qadimiyo** Qashqadaryo viloyatiga sayohat uyushtirildi. Unda 35 nafar nogironligi bor, 6 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj va 9 nafar viloyatimizning faol yoshlari "Oqsaroy" qadimiyo majmuasi, Amir Temur yodgorligi, "Ko'kgumbaz" masjidini ko'rib, ularning tarixi bilan tanishishdi. Ishtirokchilarimiz o'zlari uchun yaratilgan sharoitlar, tashkil etilgan sayohatdan juda mamnun bo'lishdi, jumladan zamonaviy, barcha qulayliklarga ega avtobus, shinam mehmonxona, tajribali gid xizmati, mazali taomlar sayohatimizning esda qolarli va maroqli o'tishiga sabab bo'ldi.

**"Inklyuziv O'zbekiston" loyihasi doirasidagi navbatdagi sayohatimiz ko'hna va qadimiyo Samarqand viloyatiga bo'ldi.** Unda jami 50 nafar yoshlar qamrab olindi, shundan, 30 nafar nogironligi bor, 10 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj va 10 nafar viloyatimizning faol yoshlari. Sayohatimiz 2 kun davom etdi, 1-kunida Xo'ja Doniyor maqbarasi, Shohi Zinda ziyoratgohi, Xalqaro turistik markaz, "Boqiy shahar" majmuasida bo'lib, tarixiy obidalarimiz tarixini o'rganish bilan birga, Samarqandning nurli oqshomini ko'rish baxtiga ham musharraf bo'lgan yoshlarimizning quvonchini so'z bilan ta'riflash qiyin! Ayniqsa, bu go'zal go'shalarga ilk bora qadam qo'yan ishtirokchilarimizning ko'zlarida hayrat porlab, Muhammadjon she'r yozdi, eshitishda nuqsoni bo'lgan Dilnoza bu shaharni rasmlarda aks ettirishni maqsad qildi. Sayohatning 2-kunida ishtirokchilar Go'ri Amir maqbarasi, Registon majmuasi, Islom

Karimov qabri va Ulug‘bek rasadxonasida bo‘lib, bu joylar haqidagi bilimlarini boyitdilar.



Yoshlar kuni munosabati bilan Toshkent viloyatining “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida o‘tkazilgan bayram tadbirida Toshkent viloyatining yoshlari qatorida Inklyuziv ta’lim markazi ishtirokchilari ham ishtirok etishdi. Tadbirda inklyuziv ta’lim markazining 25 nafar ishtirokchilari o‘zlarining markazda o‘rgangan hunarları natijasi bo‘lgan ijod namunalari bilan ishtirok etishdi. Xususan, Absalomova Dilnoza Shavkat qizi izolondan yasalgan dekorativ gullari, Tavbayeva Munojat ipdan to‘qilgan do‘ppilari, Jumaboyeva Nargiza va Sarsenboyeva Dilnozalar munchoqdan yasalgan obodoklari, Eshdavlatov Bunyod va Jumaqulov Akmallar foamiran matosidan gullar yasash bo‘yicha mahorat darslari o‘tib, tashrif buyurgan mehmonlarga hunar sirlari bilan bo‘lishdilar. Ishtirokchilarimizning o‘z qo‘llari bilan yasagan buyumlari sotuvi ham yo‘lga qo‘yildi.

“**Har bir bola e’tiborda**” loyihasi doirasida Ohangaron shaharda istiqomat qiluvchi 18 nafar va Ohangaron tumanidagi 10 nafar uy sharoitida ta’lim oluvchi yoshlar holidan xabar oldik.

“**O’zingga ishon**” loyihasi tashkil etib, unda inklyuziv ta’lim markazimizning faol ishtirokchilaridan biri – Abdusalomova Dilnozaning hayat tarzi misolida yoshlarga motivatsiya bera oladigan rolik yaratib, yoshlarimizga havola etdik.

“**Sen kuchlisan!**” loyihasida ishtirok etib, markazda ishtirokchilarimiz bilan yaratgan mahsulotlari sotuvini tashkil etdik hamda savdodan tushgan pul mablag‘larini Gematologiya va Onkologiya markazlarida davolanib, og’ir dard bilan mardonavor kurashib kelayotgan bolalar salomatligini tiklash uchun yo‘naltirdik.

Bolajonlarimizning qaysidir jihatdan imkoniyatlari cheklangan bo‘lishiga qaramay, har bir bolaning o‘z iqtidori, o‘z iste’dodi bor. Biz ishtirokchilarimizni o‘z qiziqishlari va imkoniyatlariga ko‘ra kasb-hunarga yo‘naltirishga harakat qilamiz, bu o‘z navbatida, hunarning chuqur egallanishi va bu orqali daromad topishlariga zamin yaratmoqda.

Aziz muxlis, Sizga hozirda Toshkent viloyatida yagona bo‘lgan inklyuziv ta’lim markazi haqida qisqacha hikoya qilib berdik, agarda Sizni ushbu markaz faoliyati qiziqtirgan bo‘lsa, ishtirokchilarimizning o‘z qo‘llari bilan, qalb qo‘riyu mehrini qo‘sib yaratayotgan san’at asari darajasidagi mahsulotlarni ko‘rish ishtiyоqi uyg ‘ongan bo‘lsa, albatta tashrif buyuring, biz bundan faqat xursand bo‘lamiz! Ha, aytgancha, yuqorida aytib o‘tilgan hunarlarni o‘rganmoqchi bo‘lsangiz, bizning mohir ishtirokchilarimiz bilan birgalikda yasab, o‘rganish baxtiga ham musharraf bo‘lasiz!